

OLIIY O'QUV YURTLARIDA KONFLIKTOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Ma'murova Feruza Tojimatovna

Namangan Davlat Texnika Universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedras katta o'qituvchisi

Abdullaeva Nozima Xoshimovna

Namangan Davlat Texnika Universiteti

Axborot tizimlari va texnologiyalari kafedras dotsenti

Abdullaeva Muxlisa Akmaljon qizi

Namangan Davlat Universiteti

O'zbek tili filologiyasi 4-bosqich talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada konfliktni olimlar tomonidan o'rganilganligi, konfliktning mohiyati, konflikt xolati yuz berganda ularni boshqarish, shuningdek, konfliktlarni bartaraf etish usullari yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** konflikt, konfliktning yaratuvchanlik, konfliktning vayron qilish imkoniyati, o'zini ustun qo'yish, agressiyaga moyillik, egoizm, konfliktlarni bartaraf etishning usullari, kompromiss, hamkorlik.*

КОНФЛИКТОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ И ИХ РЕШЕНИЯ

Мамурова Феруза Тожиматовна

Наманганский государственный технический университет

Старший преподаватель кафедры социальных наук

Абдуллаева Нозима Хошимовна

Наманганский государственный технический университет

Доцент кафедры Информационных систем и технологий

Абдуллаева Мухлиса Акмалжон кизи

Наманганский государственный университет

Студентка 4-го курса филологии узбекского языка

Аннотация: В данной статье рассматривается изучение конфликта учеными, сущность конфликта, управление конфликтными ситуациями, а также методы их разрешения.

Ключевые слова: конфликт, созидательный потенциал конфликта, деструктивные последствия конфликта, стремление к доминированию, склонность к агрессии, эгоизм, методы разрешения конфликтов, компромисс, сотрудничество.

CONFLICTOLOGICAL PROBLEMS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AND THEIR SOLUTIONS

Mamurova Feruza Tojimatovna

Namangan State Technical University

Senior Lecturer at the Department of Social Sciences

Abdullaeva Nozima Khoshimovna

Namangan State Technical University

Associate Professor at the Department of Information Systems and
Technologies

Abdullaeva Mukhlisa Akmaljon qizi

Namangan State University

4th-year Student of Uzbek Language Philology

Abstract: This article explores the study of conflict by scholars, the essence of conflict, the management of conflict situations, and methods for their resolution.

Keywords: creative potential of conflict, destructive consequences of conflict, desire for dominance, tendency toward aggression, egoism, methods of conflict resolution, compromise, cooperation.

Hayot konfliktlarga to'la. Insonning jamiyatdagi yashash tarzini turli ziddiyatlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Turli nizo va ziddiyatlar bilan umr davomida, har qanday yoshda, har qanday joyda, har qanday vaziyatda to'qnash kelish mumkin. Konfliktlar uyda, maktabda, ko'chada, o'quvchilar orasida, otalilar va farzandlar, xodim va uning raxbariyati orasida, jamoa a'zolari o'rtasida sodir bo'lishi mumkin. Konfliktlar, odatda, ko'p vaqt odamlar birga bo'ladigan hollarda, ya'ni ular uzoq muddat bir-birlari bilan va ruxiy

muloqotda bo'ladigan hollarda, ular ma'lum muddat uzaro birga bo'lishga majbur bo'lgan paytlarida ko'prok, sodir bo'ladi.

Konflikt – o'zaro qarama-qarshi bo'lgan ziddiyatli manfaatlar va munosabatlarning ochiq to'qnashuvidir. [3. 11 b]

S.I.Ojegov lug'atida konflikt – to'qnashuv, jiddiy fikrlar qarama–qarshiligi, bahs sifatida izohlanadi.

Agar tabiat, – A.Eynshteyn fikricha, – u murakkab hamda yomonlik tashimaydigan bo'lsa, konfliktlar bo'ladigan munosabat boshqacha bo'lishi mumkin. Konfliktga boruvchi kuchlar yovuz, adolatli va xolis bo'lishi mumkin.

Hech bir inson o'zini va boshqa insonni konfliktlardan doimiy muhofaza qilingan deb hisoblay olmaydi. Chunki konfliktlar ba'zan qo'qqisdan, hech kutilmagan holda vujudga kelishi hamda inson hayot tarzini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin. Demak, konflikt – bu ikki, yoki undan ko'p tomonlarning o'z maqsadlariga yetish yo'lida turli mafaatlarni to'qnashuvidir.

Konfutsi ta'limotida har bir vaziyat va holatning ikki ajralmas tarkibiy qismi ta'kidlab o'tilgan:

- Konfliktning yaratuvchanlik imkoniyati mavjudligi.
- Konfliktning vayron qilish imkoniyati mavjudligi.

Konfliktning yaratuvchanlik imkoniyati quyidagi hollarda ijobiy imkoniyatlarga ega:

- yashirin imkoniyatlar va muommoning yangi qirralarining ochilishiga sabab bo'ladi;
- muammo yechimining yangi yo'l – yo'riqlari, imkoniyatlari va usullarini kashf etadi;
- ishonch, samimiylik, hamkorlik va haqiqatni tan olishga qaratilgan yangi munosabatlar qurilishiga sabab bo'ladi;
- odamlarni umumiy g'oyalar asosida birlashtiradi;
- samimiy va ochiq, iliq muloqot uchun imkon yaratadi va shunday munosabatlarga insonlarni o'rgatadi;

- o‘z fikr va o‘ylaringizga aniqlik kiritishga va o‘zpozitsiyangizni qayta ko‘rib chiqishga majbur qiladi

Konflikt quyidagi hollarda vayron qilish imkoniyati ega bo‘ladi:

- konflikt yechimi topilmasa va uni boshqarish imkoniyati boy berilsa;
- g‘azab, jahl, dilsiyohlik, hafagarchilik, nafrat va qasos hislarining kelib chiqishiga sabab bo‘lganda;
- juda qattiq stressga olib kelganda;
- odamlar o‘rtasida uzoq muddatli nizo va ixtilof vujudga keltirganda;
- pashshadan fil yasab, kichkina muammoni katta majoraga aylantirganda;
- zo‘ravonlik va urushga sabab bo‘lganda.

Konflikt vaziyatlarning kelib chiqishida “konfliktogen”larning juda muhim rol o‘ynashidir. Konfliktogen – konfliktga imkon beruvchi, konflikt uchun sharoit yaratuvchi sifatida tarjima qilinadi.

O‘zini ustun qo‘yish Buyruq berib gapirish, tahdid qilish, birovni niqtab gapirish, salbiy munosabatlar, tanqid, ayblash, birov ustidan kulish, pichin, kesatiq va x.k.

Agressiya. Agressiyaga moyillik ham erkaklarga, ham ayollarga xos xususiyatdir. Erkaklar agressiyasi o‘zini ochiq ifoda qiladi, ya’ni, o‘zi uchun ko‘proq jismoniy kuch ishlatish shaklini tanlab oladi. Ayollar agressiyasi esa ochiq ifodalanmaydi. Ular orqavorotdan, asta, bilintirmay, zimdan harakat qilishadi.

Egoizm. Egoizm faqat o‘z mafaatlari ko‘rish qobiliyati bo‘lib, o‘zbek tilida xudbinlik so‘ziga to‘g‘ri keladi. Xudbinlik forscha so‘z bo‘lib, “xud” – o‘z, o‘zim, “bin” – ko‘rish ma’nolarini bildiradi. Demak, xudbin so‘zining ma’nosi – faqat o‘zini ko‘rishga to‘g‘ri keladi. Doimiy agressiyaning ildizlaridan biri egoizmga borib taqaladi.

Konfliktlarga duch kelinganda: konfliktning yuzaga kelishi tabiiy hol hamda uning vujudga kelishidan qo‘rqmaslik va dovdiramalik lozim; konfliktning sub’ektiv va ob’ektiv kelib chiqish sabablarini muhokama qilish

darkor; konfliktning yechimini topish uchun ikki tomonning ixtiyoriy sa'yi-harakatlar olib borishi va konflikt yechimini topishga rozi-rizoligi talab etiladi; har qanday konfliktning o'z yechimi mavjud, faqat uni topa bilish zarur; konflikt yechimini ijobiy topish uchun ma'lum bilim va malakalarni egallash darkor; konflikt yechimini topish jarayonida ziddiyat qarama-qarshi odamga, uning shaxsiyatiga emas, balki ikkala tomon o'zaro birlashib, o'z mulohazalarini mavjud muammoga qaratishi darkor; konfliktni insonlar emas, balki vaziyatlar va manfaatlar vujudga keltiradi; konfliktlar har doim mavjud bo'ladi, shuning uchun ham kishilar ularni boshqarish malakasiga ega bo'lishi lozim. Yuqoridagi kabi nizoli holatlar yuzaga kelmasligi uchun eng avvalo, ta'lim muassasalari, tashkilotlar va jamoalarda sog'lom psixologik muhitni yaratishga erishish lozim. Jamoada konfliktni holatini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, qachonki sub'ekt o'zining hayotini mazmunan boyitsa, uning hayotdan qoniqqanlik darajasi umumiy ravishda ortadi.

Konfliktlarni bartaraf etishning shaxslararo munosabatlarga aloqador usullari mavjud. Ular quyidagilar:

- bosh tortish – nizoga nisbatan shunday reaksiya, nizoga guvoh bo'lganlar aslida uning mavjudligini tan olmaydilar, unga aralashishdan bosh tortadilar. Odatda bunday sharoitda rahbar yoki ayni paytda vaqti yo'qligini, imkoniyat yo'qligini, nizoning sababi arziyas holat ekanligini vaj qilib, uni xal qilishga aralashishdan bosh tortadi. Yoki u vaziyat taqozosi bilan paydo bo'lgan nizo vaqt o'tishi bilan o'z o'zidan yechimini topadi, odamlar insofga kelib qolishiga umid qiladi;
- tekislash – bu nizolashuvchi tomonlardan birini mavjud holatga “ko'ndirish”, moslashtirish va shu yo'l bilan o'zining ham muayyan manfaatlarini himoya qilishdir.
- kompromiss – bu ochiq muloqot va vaziyatni, nizokashlarning hulq – atvori va fikrlarini muhokama qilish yo'li bilan ikkala tomon ham ma'qul bo'lgan yechimni qidirishdir. Bu usulning samaradorligi shundaki, nizoga

aralashgan shaxs ikkala tomonning ham aybini, ular tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolarni ochiq, xolis o‘rtaga tashlaydi va eng ma‘quli – har bir shaxs o‘z burch va ma‘suliyatlarini taroziga solib olishlari ekanligini uqtiradi.

- hamkorlik – bu nizoni hal qilishning shunday usuliki, bunda ikkala tomonning shaxsiy manfaatlarini nizoni keltirib chiqargan muammodan ustun qo‘yiladi.

Oliy o‘quv yurtlarida sog‘lom psixologik muxitni yaratishda raxbar va pedagoglarning o‘zlari ayniqsa muomala odobi borasida namuna bo‘lmoqlari maqsadga muvofiqdir. Xulosa qilib aytganda, oliy o‘quv yurtlarida nizoli holatlarni keltirib chiqaruvchi psixologik omillarni o‘rganishimiz va ularni bartaraf etishning psixologik mexanizmlarini ishlab chiqishimiz lozim. Shuningdek, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi nizoli holatlar va ularni bartaraf etishni psixologik asoslashning mazmuni, yo‘llari, shart-sharoitlari, metodlarini belgilab olishimiz talab etiladi. Oliy o‘quv yurtlarida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi nizoli holatlarni bartaraf qilishning nazariy-amaliy asoslarini yaratish, nizolarni bartaraf qilishga doir mashg‘ulotlar seminar-treninglar puxta ishlangan, ilmiy asoslangan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bashkin M. V. Konfliktnaya kompetentnost: Metod ukazaniya - Yaroslavl: YarGU, 2014.
2. Grishina N. V. Psixologiya konflikta SPb. : Piter, 2008-544 s.
3. Axmedova M.T. Pedagogik konfliktologiya (O‘quv qo‘llanma)-T.: Adabiyot uchqunlari, 2016- 319 b
4. Mamurova, F. T., Abdullayeva, N. K., & Qahhorovna, S. M. (2020). Innovative approach and modern trends in the development of science and education. *Journal of Critical Reviews*, 7(7), 1061-1063.

5. Mamurova, F. T., Abdullayeva, N. K., & Mallaboyev, N. (2019). Using the «assessment» method in assessing students knowledge. *Theoretical & Applied Science*, 11, 80-83.